

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati 545

B.A.Pulatov

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari 548

K.I.Marayimova

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari 552

N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari 557

D.I.Asqarova

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari 561

M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari 569

M.Q.Jabborova

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari 572

FALSAFA**A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari 579

I.M.Arzimatova

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi 583

D.E.Normatova

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati 588

I.A.Asatulloev

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili 593

T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov

Korrupsiaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari 597

S.S.Evatov

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi 602

I.Y.Toirov

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari 606

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili 610

A.A.Sayitxonov

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi 614

F.A.Yuldashev

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests 618

S.P.Tojiboyev

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili 625

B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari 631

M.A.Abduxamidov

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili 635

SIYOSAT**J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari 638

A.A.Ganiyev

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati 643

TARIX**B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir 648



УО'К: 1:159.964.2:130.2:291.1

**KARL YUNG QALB KONSEPSIYASIDA SHARQ VA G'ARB XALQLARI M A'NAVIY
HAYOTINING QIYOSIY TAHLILI**

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ
ЛЮДЕЙ ВОСТОКА И ЗАПАДА В КОНЦЕПЦИИ СЕРДЦА КАРЛА ЮНГА**

**COMPARATIVE ANALYSIS OF SPIRITUAL LIFE OF EAST AND WESTERN PEOPLE IN
CARL JUNG'S CONCEPT OF HEART**

Asatulloev Inomjon Abobakir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti
Falsafa va milliy g'oya kaedrasi dotsenti

Annotatsiya

Maqolada Karl Yungning qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'naviy hayotining qiyosiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, mutafakkirming jamoaviy ongsizlik arxetiplari ta'lilotiga doir qarashlari bayon qilingan.

Аннотация

В статье представлен сравнительный анализ духовной жизни народов Востока и Запада в концепции души Карла Юнга. Также описаны взгляды мыслителя на учение об архетипах коллективного бессознательного.

Abstract

The article presents a comparative analysis of the spiritual life of Eastern and Western peoples in Carl Jung's concept of the soul. The thinker's views on the doctrine of collective unconscious archetypes are also described.

Kalit so'zlar: jamoaviy ongsizlik, inson komoloti, qalb, ruhiyat, psixoanalitika, ongsizlik, ma'naviy olam, ruh, jon, borliq, tana, qalb konsepsiysi.

Ключевые слова: коллективное бессознательное, зрелость человека, душа, психика, психоаналитика, бессознательное, духовный мир, дух, душа, существование, тело, понятие души.

Key words: collective unconscious, human maturity, soul, psyche, psychoanalytics, unconscious, spiritual world, spirit, soul, existence, body, concept of soul.

KIRISH

«Tahliliy psixologiya»ning yana bir markaziy tushunchasi bu – «jamoaviy ongsizlikdir». «Jamoaviy ongsizlik» o'z ichiga o'tmishga aylangan insoniyat xotiralarini, irqi va milliy tarixni, xattoki, insoniyatgacha bo'lgan jonli mavjudlikni ham qamrab oladi. Bu butun irq va xalqlarga tegishli bo'lgan umuminsoniy tajribadir. Jamoaviy tuzilmaning bunday ongsiz mazmuni, Yung fikricha, inson ruhiyati va miyasini genetik-nasliy tuzilmasidan kelib chiqadi. Aynan «jamoaviy ongsizlik» olim fikricha hamma «arxetip»lar mujassamlashgan manbadir.

Karl Yung ta'lilotida Sharq madaniyati bilan G'arb madaniyati mushtarakligi, ya'nular tajribasi va irrasional talqiniga murojaat qilib, Sharq madaniyati va qadriyatlarining ichki mohiyatini anglash zarurligini ta'kidlaydi.

Asosiy fikr shundaki, sharqona inson botiniy intilishi (introvertligi) – bu o'z-o'zini in'ikos qilish emas. Bu shaxsning yuqori ruhiy ibtidoda ya'ni, "Yagona"da singib ketishini bildiradi. Ana shu sharqona "Yagona" bilan bog'liq holda Yung "jamoaviy ongsizlik"ni talqin qiladi. Buning isboti tariqasida Xitoy falsafasidagi Xudoning samoviy (Osmon) kuch-qudratini namoyon bo'lishi "Yagona" Ruh qarashlarida ham o'ziga xos tarzda aks etganligini K.Yung ta'lilotida muayyan darajada ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Yungning "jamoaviy ongsizlik" tushunchasi o'ziga xos oliy timsol, ilohiy-ruhiy ibtidoni bildiradi. Bu oliy timsoliy ibtido ruhiy pardaga o'ralgan "oliy ong"dir. U alohida inson ruhiyatiga nisbatan chuqurroq darajadagi vogelikka ega. Bu ilohiylik chegarasida turgan ruh borlig'idir. U Sharq

madaniyati tajribasiga, uning norasional talqiniga murojaat qilgan holda shunday xulosaga keladi. "Biz sharq qadriyatlari ichkaridan kirib borishimiz zarur, - deb ta'kidlaydi K.Yung, - tashqaridan emas, ularni ongsizlikdan qidirishimiz kerak"[13;106]. Gap faqat, sharqona inson madaniyatining "botiniy intilish" ("introvertlik") ruhiyatida emas, uning "qalb"ga yo'naltirilganligida ham emas, unga qarama-qarshi bo'lgan ongi "tashqi dunyo"ga qaratilgan g'arbona zohiriyl intilish (ekstrovert) inson madaniyatida ham emas. Asosiy masala shundaki, Sharqona inson botiniy intilishi (introvertligi) – bu o'z-o'zini in'ikos qilish emas (ya'ni, o'z "Men"i tahlili): "...sharq insoni uchun ongni "Men"siz tasavvur qilish qiyinchilik tug'dirmaydi"[13;108]. Sharqona ongga xos bo'lgan ana shu tasavvurni Yung "bizning "ruh"imizga aynan xos bo'lмаган ruh"[13;108], - deb ataydi. Masalan, yuqorida zikr qilingan yogadagi samadxa holatiga o'z "Men"idan butunlay voz kechish yo'li orqali erishish mumkin. Bu shaxsning yuqori ruhiy ibtidoda ya'ni, "Yagona"da singib ketishini bildiradi. Bu Spinoza qarashlaridagi Xudoni, Gegel falsafasidagi Mutlaq ruhni eslatadi. "Yagona" shaxsiy ongdan "tashqarida" emas, (ya'ni xristian dinidagi "standart" bo'lgan "samodagi" Xudo emas, S.Kerkegorning ham Xudosi emas yoki K.Marksning tarixiy materializmdagi "jamiyat"i ham emas), birinchisi ibtidosidan ikkinchisini taqozo qiladi. Ana shu sharqona "Yagona"dan kelib chiqqan holda Yung o'zining "jamoaviy ongsizligi"ni talqin qiladi. "Shunday ma'nodagi "jamoaviy ongsizlik" tushunchasi Buddanining evropacha ko'rinishidir (ekvivalentidir), u nurlangan ruhdır"[13;108], - deb qayd qilgan edi olim.

NATIJA VA MUHOKAMA

Karl yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari ma'nnaviy hayotining qiyosiy tahlili murakkab falsafiy tahlillatr ustiga qurilgan. K.Yung o'z xulosalarini qadimgi Xitoy falsafasining «dao» haqidagi manbalari hamda qadimgi Hindistonning ilohiy kitoblaridan keltirilgan iqtiboslar bilan asoslaydi. Umuman olganda, uning ruhiy holatlarga bag'ishlangan tadqiqoti butun jahon falsafasini ruhiy jihatdan birlashtirish mumkinligini isbotlab berishga qaratilgan. Yung nafaqat falsafaning, balki insonning ruhiy olami hamda borliqning ruhiy olami yagonaligini ham asoslashga harakat qildi.

Xuddi shunday, «O'zlik» haqida gapirib K.Yung uni - shaxsning markaziy «arxetip»idir, deydi. Uning atrofida insonning hamma fazilatu-xislatlari jamlanadi. Bu iborani Yung qadim hind falsafasi bo'lmish Upanishadlardan oladi. Bu ibora shaxsning bir butunligini anglatadi. Bu «arxetip» orqali Yung turli timsollarni ifodalaydi, ularning asosiysini ilohiy doiradir yoki «mandala» deb ham ataydi. «Mandala» - qadim hindlarning tasavvurida butun mayjudlikning jamlanishini ifoda qiladi. Umuman olganda, Yung «arxetip»larni ta'riflashda ko'pincha Sharq falsafasiga murojaat qiladi. Chunki olimning fikriga ko'ra, «qadimgi hind falsafasining tushunchasi bo'lgan «karma» (ruhiy birinchi asos) «arxetip»lar tabiatini tushunishning chuqur mohiyatini tashkil qiladi». Yungcha ruhiyat tizimida agar «Men» shaxs ongingin sub'ekti bo'lsa, «O'zlik» inson ruxiyatining yaxlit sub'ektidir. Shunday qilib, «O'zlik» onglik va ongsizlikning o'rta sohasini tashkil qiladi. «O'zlik» «Ko'lanka» bilan ham, «Shaxslik» bilan ham aynan mos kelmaydigan shaxs markazidir. Bu shaxs muvozanatining yangi qirrasidir. U o'zida ongsizlik va ongi jamlay olish xususiyatiga ko'ra, insonning butun hayotiy faoliyatini belgilab beradi va qismlarning yaxlitlikka erishishini ta'minlash uchun yo'naltirilgan. «O'zlik» Yung fikriga ko'ra, insonning ongsiz hayotida oliy timsoliy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Gyotening Faust timsoli bilan birga Mefistofelning, Nisschedagi Zardo'shtning mayjudligi bilan birga «badxulq inson ko'lankasi» ham bo'ladi, bunday oliy timsoliy shaxsda hamma qadimgi-arkaik qirralar saqlanib qolgan holda, insonning o'tmishi, buguni va kelajagidagi yuksakligiyu tubanligini ham o'zida mujassam qiladi.

K.Yungning ruhiyat tahlili ikkiga bo'linadi. Olimning ruhiyat tahlili o'xshatish kuzatuv-tajribalari usuliga asoslanadi. Üning mazmunini sezgi idroki (persepsiya)[14], o'z-o'zini idrok qilish (appersepsiya)[14], o'xshatish (assosiasi) tushunchalarining shakllanishi va ruhiyatning markaziy harakatini tashkil qiladi. Bu usulning mazmuni shundaki, mijozga so'zlar mazmuni tushuntiriladi, mijoz tavsiya qilingan so'zlarga o'xshash yoki o'xshashi yaqin bo'lgan so'zлarni topadi, bunda javob tezligiga va tashqi ta'sirlantiruvchilarga diqqat qaratiladi. Bunday tajriba natijalari tadqiq qilinuvchining "kompleks"larini ya'ni xususiyatlari majmuasini bilishga yordam beradi. K.Yungning chuqur ruhiyat tahlili esa, jamoaviy ongsizlik arxetiplari ta'limoti bilan bog'lanadi, ya'ni inson ruhiyatini tashkil qiladi.

K.Yung din va axloqqa o'tkazilgan (sublimasiya) inson hirsiyligiga e'tibor qaratmaydi. Ularning ikkisini ham "bevosita ruhga berilganlik", deb qabul qiladi. "Tabiatning qadimdan qolgan arxaik bilimi" natijasi, "qalb" yig'indisi, "ichki va tashqi hayot" tajribasi, timsoliy shaklning ifodasi, deydi. Yung fikriga ko'ra, "... bizning ruhiyatimiz o'zining ketidan timsoh kabi uzun dumini sudrab

FALSAFA

yuradi, bu shaxs, urug', millat, Evropa va butun insoniyat tarixidir" [15;55]. Yungning "jamoaviy ongsizligi" voqelikka aylangan madaniyatni bilish (anglash) emas, shaxs "ortidagi tarix" emas, balki, "butun insoniyatning xususiyatidir, u umumiy tarzda namoyon bo'ladi" [15;31]. Yungga ko'ra, jamoaviy ongsizlik mohiyatan timsoliy-hissiy shakl sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u shaxsga bevosita o'z-o'zidan ochiladi. Masalan, bu holat tush ko'rganda namoyon bo'ladi.

Yung fikriga ko'ra, ongsizlikni tushunishdagi ziddiyat ongni ongsizlik tomon siqib chiqarilishida yaqqol namoyon bo'ladi, ong ongsizlikka "g'arq" bo'ladi. Yung masofadan muloqot qilish hodisasining haqiqiyligiga to'liq ishonadi. Bunday jarayon muayyan darajada ilohiy-ruhiy kuchga ega ekanligi, ya'nı Sharq faylasuflari bu holatlarni chuqur o'rganganligini Karl Yung tan oladi va uning norasional talqinini ishlab chiqadi.

Ongsizlik haqidagi ana shu tub negizli farq ostida Yung o'zining inson shaxsining shaxsiylashuvi haqidagi nuqtai nazarini quradi. Bu ijtimoiylashuv nazariyasiga qarshi turadi. Olimning nuqtai nazariga ko'ra, inson shaxsining shakllanishi "... yagona mavjudotning o'ziga xos tuzilishi ... jamoaviy psixologiyadan va umumiylikdan farqlanishi" [16;169] jarayonidir.

Ongli "Men"ning oliy timsoli ruhiy jarayon bilan tana o'rtasidagi vositachi sifatida namoyon bo'ladi, bu "yarimfiziologik" holatdir. Ilohiy ruhiyatning bunday qatlamini egallash Sharqda istak-xohishlardan voz kechish orqali amalga oshiriladi, G'arbda esa, iroda kuchiga tayaniladi. Bular negizida ziddiyatli ko'nikmalar yotadi. Iroda – xohish-istiklarni jilovlaydi. Xatxa-yoga mashqlari orqali esa, ruhiyatning quyi qatlamlariga shunday ishlov beriladiki, natijada ular yuqori ongga o'tishga to'siq bo'lmaydilar. G'arbona inson o'z-o'zini davolash (meditasiya)ni iroda va diqqatni o'z "Men"iga jamlash sifatida tushunadi. Sharqona talqinda bu jarayon "fikr jamlanmasi" siz amalga oshadi – u hech narsaga yo'naltirlmagan. "Chunki unda markazning o'zi yo'q, - deb yozadi olim, - ong shunday parchalanib ketadiki, u bevosita ongsiz holatga yaqinlashib qoladi" [16;146]. Ongsizlik Sharq falsafasining asos negizini tashkil qildi. Biroq, istak-xohish orqali ruhiyat tahlili – onglilik sari boraveradi.

Shunday qilib, ongsizlik sohasida eng umumi ravishda o'zaro aloqa mavjud. Uning ichiga kirish orqali insonda "o'z-o'zidan mavjud (transsensual) hissiyot" uyg'onadi, shunga ko'ra biz "Yagona ruh"ga yo'l olamiz, o'z-o'zimizni ozod qilish holatiga erishamiz. "Yagona" – bu hurlik va ozodlik demakdir. Evropa madaniyatida ana shunday qobiliyat yo'qotib qo'yilganligi tufayli "ruh bo'hroni"ga olib keldi. G'arb insoni o'zining asosidan, ildizidan begonalashgan, o'zining ruhiy mohiyatidan ajralib qolgan, uning qalbida ezgu g'oyalar bo'lsa ham ular tashqi maqsadlarga qaratilgan edi. "Sharqda ichki inson tashqi inson ustidan hukmronlik qiladi, shuning uchun ham dunyo uni ichki negizidan ajratib olmagan. G'arbda esa, tashqi inson birinchi darajaga o'tib olgan, shuning uchun ham o'zining ichki mohiyatiga begona bo'lib qolgan. Yagona Ruh, yagonalik, noaniqlik, yaxlitlik va abadiylik Yagona Xudo timsoliga yashirinib olgan. Inson mayda mavjudotga aylanib, o'z yumushlariga ko'milib ketdi" [13;121]. Darvoqe, Sharq ma'nnaviyatida, madaniyatida, axloq-odob va umuman diniy qarashlarida, ayniqsa Islom dinida bir zum ham Haq taola – Xudoni unutish, "o'z yumushlariga ko'milish" sira ham ko'zga tashlanmaydi. Shu jihat bilan ham G'arb faylasufi Karl Yung Sharq falsafasi donishmandligiga murojaat qilganligini ta'kidlashimiz joiz.

Yuqorida aytilgan fikrlardan, muayyan darajada ruhiyatsiz "chirigan" G'arb madaniyatidan voz kechib, sharqona meditasiyadan panoh topish kerak, degan xulosaga kelish mumkin. Lekin Yung bunday keskin xulosaga kelmay, balki ikki buyuk madaniyatning "bir yoqlamaligini" ta'kidlaydi: "Ulardan biri onglilik olamiga etarli baho bermaydi, boshqasi – Yagona Ruh - yaxlitlik dunyosini inobatga olmaydi. Natijada ikkisi o'zining xulosalari orqali, yaxlitlikning ikkinchi yarmisiz qoladi; ularning hayoti yaxlit mavjudlikdan ayrilib, sun'iy, insonsiz bo'lib qoladi" [13;122].

Shuning uchun freydcha ruhiyat tahlili evropacha madaniyatning ruhiy rivojini ifodaladi; tafakkurning hukmronligini bir oz bo'lsa-da chekintirdi, ruhni aqlga nisbatan yuqoriroq, kengroq talqin qildi, degan xulosaga keldi Karl Yung. Olimning qat'iy fikriga ko'ra, Sharqni to'liqligicha qabul qilish ham xatolikka olib keladi: "Meni buyuk Sharq faylasuflari qanchalik hayratga solsa, ularning falsafiy dunyoqarashi shunchalik ruhlantirmaydi. Men ularni timsoliy ruhiyatshunos ekanligiga shubha bilan qarayman. Ularni aynan qabul qilib bo'lmaydi, ular bilan hazillashib ham bo'lmaydi. Ular nazarda tutgan narsani falsafiy dunyoqarash deb e'tirof etilsa, unda bunday tushunishning kelajagi ham yo'q.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalar ishlab chiqildi: Sharqona ongga xos bo'lgan tasavvurni Yung "bizning "ruh"imizga aynan xos bo'limgan

ruh", deb ataydi. Masalan, yuqori yogadagi samadxa holatiga o'z "Men"idan butunlay voz kechish yo'li orqali erishish mumkin. Bu shaxsnинг yuqori ruhiy ibtidoda ya'ni, "Yagona"da singib ketishini bildiradi; Sharqda ichki inson-ruhiy tashqi-jismoniy inson ustidan hukmronlik qiladi, shuning uchun ham dunyo uni ichki ruhiy negizidan ajratib ololmagan; G'arbda esa, jismoniy inson birinchi darajaga o'tib olgan, shuning uchun ham o'zining ichki ruhiy mohiyatiga begona bo'lib qolgan. Yagona Ruh, yagonalik, noaniqlik, yaxlitlik va abadiylik Yagona Xudo timsoliga yashirinib olgan; K.Yung din va Xudo to'g'risidagi qarashlarini yanada kengroq tarzda Sharq ta'lomitlariga, xususan hind falsafasiga murojaat qilgan holda "libido" tushunchasini o'ziga xos talqin qilish orqali rivojlantiradi; K.Yung ikki buyuk madaniyatning "bir yoqlamaligini" ta'kidlaydi. Ulardan biri onglilik olamiga etarli baho bermaydi, boshqasi – Yagona Ruh - yaxlitlik dunyosini inobatga olmaydi. Natijada ikkisi o'z xulosalari orqali, yaxlitlikning ikkinchi yarmisiz qoladi. Ularning hayoti yaxlit mavjudlikdan ayrib, sun'iy, insonsiz bo'lib qoladi; Yung «arxetip»larni ta'riflashda Sharq falsafasiga murojaat qiladi. Chunki olimning fikriga ko'ra, «qadim hind falsafasi tushunchasi bo'lgan «karma» (ruhiy birinchi asos) «arxetip»lar tabiatini tushunishning chuqur mohiyatini tashkil qiladi»; umuman olganda, Yungning bu boradagi qarashlari butun jahon falsafasini ruhiyat tahlili jihatdan birlashtirish mumkinligini isbotlab berishga qaratilgan. Yung nafaqat falsafaning, balki insonning ruhiy olami hamda borliqning ruhiy mohiyatini yagonaligini ham yaqqol namoyon etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. –М.: Фонд "За экономическую грамотность", 1995. –С. 10.
2. Файхингер Г. Философия как если бы. –М.: –СПб, 1961.
3. Adler A. Individual Psychology of Alfred Adler: A systematic presentation in selections from his writings. - N.Y., 1964. -P. 129.
4. Ларошфуко Ф. Максими. Б. Паскаль. Мысли. Ж. де. Лебрюйер. Характеры. -М., 1990. –С. 176.
5. Ницше Ф. Собр. соч. Т. 1. –М., 1990. –С. 325.
6. Adler A. Understanding Human Nature. -N.Y., 1928. -P. 259.
7. Adler A. Superiority and Social Interest: A collection of later writings. -N.Y., 1979. -P. 39.
8. Adler A. Understanding Human Nature. -N.Y., 1928. -P. 43.
9. Adler A. Cooperation Between the Sexes: Writings on women, love and marriage, sexuality and its disorders. - N.Y., 1978. -P. 78.
10. Adler A. The Progress of Mankind // Individual Psychol., 1982. Vol. 38. № 1. -P. 14.
11. Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент, 1993. –Б. 186.
12. Ибн Сино. Шифо // Юсуф Мусо. Ибн Сино фалсафасида социология ва сиёсат. –Қохира, 1952. –Б. 8.
13. Юнг К. О психологии восточных религий и философий. –М., 1994. –С. 106.
14. Юнг К. О психологии восточных религий и философий. -С. 108.
15. Фалсафа: қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004. –Б. 198.
16. Юнг К. Аналитическая психология. -СПб., 1994. –С. 55.
17. История зарубежной психологии. –С. 169.
18. Юнг К. О психологии восточных религий и философий. С. 121.